

Texnika qudrati

Davlat qudratining muhim tamoyillaridan biri uning qurolli kuchlaridir. Qurolli kuchlar esa texnikasi va unga bo'lgan munosabati bilan ahamiyatlidir.

✘ Bugun 27 dekabr 2017 yil institutimizga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi O'quv bo'limi boshlig'i podpolkovnik Murod Tavbaev, bo'lim xodimi, podpolkovnik Alisher Tavakkalov, "Zirhli va avtomobil texnikalarning tuzilishi va ulardan foydalanish" kafedrasida o'qituvchilari podpolkovnik Azamat Tavbaev, podpolkovnik Madaminjon Sarimsoqov, podpolkovnik Mirsaid Turobov hamda "Chet tillar" kafedrasida dotsenti Abduraimova Shohida, ushbu kafedra o'qituvchisi Gulshoda Abdullaeva, "Oliy matematika" kafedrasida Erkin Esonovlar fan ta'lim va amaliyot borasida o'zaro hamkorlik, tajriba almashish uchun tashrif buyurdilar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi O'quv-bo'limi boshlig'i podpolkovnik Murod Tavbaev institut O'quv-metodika boshqarmasi boshlig'i muovini Azamat Tabaev bilan birgalikda o'quv jarayoni haqida fikr almashdilar. Akademiya "Chet tillar" kafedrasida dotsenti Abduraimova Shohida va kafedra o'qituvchisi Gulshoda Abdullaeva institut "Chet tillar" hamda "Ingliz tili" kafedralari faoliyati, o'quv reja va dasturlari bilan tanishdilar. Akademiya "Oliy matematika" kafedrasida o'qituvchisi Erkin Esonov institut "Iqtisodiyot va menejment" fakulteti dekani Olim Kucharov bilan o'zaro fikr almashishdi.

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti dekani Erkin Farmonov, "Mashinalardan foydalanish va ta'mirlash" kafedrasida mudiri Asqar Egamberdiev, "Traktor va avtomobillar" kafedrasida mudiri Mansur Omonovlar Akademiyaning o'qituvchilari podpolkovnik Azamat Tavbaev, podpolkovnik Madaminjon Sarimsoqov, podpolkovnik Mirsaid Turobovlarni kafedralar faoliyati, moddiy-texnik bazasi, amaliyot uskunalari bilan yaqindan tanishtirishdi. Ayni paytda ularning o'zlari ham ishlatib ko'rishdi.

O'quv-metodika boshqarmasi metodisti Maftuna Tosheva axboroti

Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov